

KASBIY STANDART
Ta'minot zanjiridagi yuk tashish bo'yicha logistika faoliyati

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartni qo'llanilish sohasi: Ushbu kasbiy standart "Logistika bo'yicha texnik (avtomobil transporti sohasida)" kasbiga oid bo'lib, "Yuklarni eltish bo'yicha ekspeditor", "Tashish xizmati dispetcheri", "Yuk tashishni tashkillashtirish bo'yicha texnik" hamda "Ekspeditor" kabi lavozimlar faoliyatini qamrab oladi.

Ushbu kasbiy standart logistika va transport sohasidagi kasblar bo'yicha o'rta maxsus va oliy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, kasbiy malakalarni mustaqil baholash tizimida mezon sifatida qo'llash, mehnat bozori ehtiyojlari asosida kasbiy tayyorgarlik, qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini shakllantirish, shuningdek tashkilotlarda kadrlar siyosatini yuritish, jumladan xodimlarni tanlash, ularning malakasini baholash, lavozimga tayinlash hamda xizmat vazifalarini aniqlashda foydalanish uchun mo'ljallangan.

Mazkur kasbiy standart, shuningdek, mehnat faoliyatini normativ-huquqiy jihatdan tartibga solish va mehnat munosabatlarini hujjatlashtirish jarayonlarida qo'llanilib, logistika va transport sohasidagi amaliy faoliyatga mos keluvchi kasbiy malaka talablarini belgilaydi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi

tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

Kvalifikatsion talablar - Kasb bo'yicha faoliyatni yuritish uchun talab etiladigan minimal bilim, malaka va tajriba.

Sektor – Kasb tegishli bo'lgan iqtisodiy soha (masalan, transport va logistika sektori).

Ishlab chiqarish muhiti – Ish joyining texnik, xavfsizlik va mehnat sharoitlari bilan bog'liq tavsifi.

Xavf darajasi - Faoliyat davomida yuzaga keladigan salbiy omillar darajasi (masalan: psixologik yuklama, tezkor qaror qabul qilish).

Axborot texnologiyalari (AT) - Faoliyatda qo'llaniladigan elektron tizimlar, dasturiy ta'minotlar va raqamli vositalar.

Qiyosiy yondashuv - Milliy kasb va malakalarni Yevropa yoki boshqa xalqaro tizimlar bilan taqqoslash usuli (EQF, ESCO, ISCO).

Dispatcher – avtotransport vositalarining harakati ustidan real vaqt rejimida nazorat olib boradigan va tashish jarayonini muvofiqlashtiruvchi mutaxassis.

Ekspeditor – yuklarni yetkazib berish, ularni kuzatib borish va zarur hujjatlarni yuritish uchun mas'ul shaxs.

Texnik – yuk tashish texnologiyasini loyihalash, marshrutlarni optimallashtirish va texnik hisob-kitoblarni olib boruvchi mutaxassis.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar

Ushbu kasbiy standart quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik asoslarga muvofiq ishlab chiqildi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 30 sentyabrdagi PQ–345-son "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 25 avgustdagi PF-6060-son Farmoni "Mehnat bozorining zamonaviy talablariga javob beradigan kasb va malaka tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida";

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 31 dekabrda 833-son Qarori "Kasbiy standartlar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida";

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 avgustdagi 275-son Qarori "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga (IFUT-2) o'tish chora-tadbirlari to'g'risida";

"Milliy malaka ramkasi" (MMR) talablari va kasbiy malakalarni tasniflash metodologiyasi;

"Logistika, transport va yuk tashish" sohalariga oid xalqaro amaliyot, jumladan, ESCO, European Qualification Framework (EQF) va boshqa ilg'or tajribalar;

Ish beruvchilarning amaliy ehtiyojlari, ishlab chiqarish jarayonlarining xususiyatlari va professional faoliyatdagi real vazifalar.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

masalan

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

ESCO - Yevropa Ko'nikmalar, Kompetensiyalar, Malakalar va Kasblar Tasnifi – Yevropa Ittifoqining mehnat bozori va ta'lim tizimi uchun yagona tavsif tizimi;

EQF- European Qualification Framework - Yevropa Malaka Ramkasi – Yevropa mamlakatlari orasida malaka darajalarini taqqoslash imkonini beruvchi umumiy tizim.

ISCO — bu International Standard Classification of Occupations, ya'ni Xalqaro kasblar standart tasnifi deganidir.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Ta'minot zanjiridagi yuk tashish bo'yicha logistika faoliyati
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Mazkur kasbiy standart yuklarni tashishni rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat qilish va hujjatlashtirish orqali ta'minot zanjiri bo'ylab yuklarning o'z vaqtida, xavfsiz va samarali yetkazilishini ta'minlashdan iborat. Ushbu kasbiy faoliyat doirasida yuklarni eltish bo'yicha ekspeditor, tashish xizmati dispetcheri, yuk tashishni tashkillashtirish bo'yicha texnik hamda ekspeditor singari mutaxassislar faoliyat olib boradilar. Kasbiy faoliyatdan kutilayotgan asosiy natijalar quyidagilardan iborat: yuk tashish jarayonlarining uzluksiz va muvofiqlashtirilgan ishlashini ta'minlash; transport vositalaridan samarali foydalanish va operativ rejalashtirish orqali xarajatlarni optimallashtirish; yuklarning to'g'ri, to'liq va belgilangan muddatda yetkazilishini kafolatlash; hujjatlar bilan ishlashda aniqlik, axborot almashinuvida shaffoflik va mas'uliyatni oshirish; logistika xizmatlari sifati va mijozlar qoniqish darajasini yuqori darajada ta'minlash; transport-logistika faoliyatida amaldagi texnik, ekologik va huquqiy talablarga rioya qilish.
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	52 Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati 52.2 Transportda tashish bo'yicha yordamchi faoliyat 52.21 - Quruqlik transporti sohasidagi xizmatlar 52.21.0 - Quruqlik transporti sohasidagi xizmatlar 52.29 - Tashish jarayonidagi boshqa kuzatib borish xizmatlari 52.29.1 - Temir yo'l, avtotransport, dengiz yoki havo orqali transportda tashishni tashkil qilish
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Mazkur kasbiy standart ta'minot zanjiri doirasida yuk tashish bo'yicha logistika faoliyatini amalga oshiruvchi mutaxassislarning kasbiy faoliyati, ularning malaka darajalari, zarur bilim va amaliy ko'nikmalariga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilaydi. Kasbiy faoliyat turi — avtomobil transportida yuk tashish jarayonlarini rejalashtirish, tashkillashtirish, muvofiqlashtirish, monitoring qilish va hujjatlashtirishdan iborat. Ushbu faoliyat yuklarning belgilangan manzillarga xavfsiz, o'z vaqtida va samarali yetkazilishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, logistika tizimining muhim bo'g'ini hisoblanadi. Standart quyidagi kasb lavozimlarini o'z ichiga oladi: • Yuklarni eltish bo'yicha ekspeditor • Tashish xizmati dispetcheri • Yuk tashishni tashkillashtirish bo'yicha texnik • Ekspeditor

		Ushbu kasbiy standart: • ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va yangilashda; • malaka darajasini aniqlash va baholash tizimida; • tashkilotlarda xodimlarni tanlash, joylashtirish va malakasini oshirishda; • avtomobil transportida yuk tashish xizmatlari sifatini oshirishda asosiy metodik hujjat sifatida qo'llaniladi.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		21642007-Transport (yer osti, avtomobil, elektro-) dispetcheri	5
		31155008-Yuk va passajir transportida tashishni tashkillashtirish bo'yicha texnik	5
		33310005-Yuklarni eltish bo'yicha ekspeditor	5
		33310006-Yuklarni yetkazib berish bo'yicha ekspeditor	5

II. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi va m/d	Nomi	Kodi	Nomi
1	21642007-Transport (yer osti, avtomobil, elektro-) dispetcheri	A1.5	Transport vositalarining harakatini real vaqt rejimida nazorat qilish, harakat jadvaliga rioya etilishini ta'minlash hamda yuzaga keladigan har qanday og'ish yoki fors-major holatlar bo'yicha tezkor choralar ko'rish orqali transport tizimining uzluksiz, xavfsiz va samarali faoliyat yuritishini ta'minlash.	A1.01.5	Transport vositalarining harakat grafigiga muvofiq harakatini nazorat qilish va og'ishlarni aniqlash. GPS, radioaloqa yoki maxsus dasturiy ta'minot orqali kuzatuv olib borish va harakatda kechikish, to'xtalish yoki nosozliklar yuzasidan tezkor chora belgilash.
				A1.02.5	Haydovchilar bilan uzluksiz aloqa o'rnatish va zarur marshrut o'zgarishlarini ko'rsatma asosida yetkazish. Ob-havo, yo'l holati, avariya holatlari va tirbandliklarga mos ravishda yo'nalishlarni yangilash va haydovchiga muqobil (alternativ) yo'l yoki to'xtash punkti ko'rsatish.
				A1.03.5	Transport harakatining kunlik/tugallangan holat bo'yicha hisobotini tayyorlash. Haqiqiy yo'lga chiqish, bekatlarda to'xtash va manzilga yetib borish vaqtlarini qayd qilish va dispetcherlik tizimiga kiritish yoki rahbariyatga muntazam yetkazish.
		A2.5	Yuk tashish jarayonini rejalashtirish va tashkillashtirishda ishtirok etish, jumladan, yuklash-tushirish ishlarini, transport vositalarini taqsimlashni va harakat jadvalini tuzishni tashkiliy jihatdan boshqarish	A2.01.5	Yuklash va tushirish punktlarining ish grafigiga muvofiq transport vositalarini rejalashtirish va taqsimlash. Yuk hajmi, manzili, yetkazish muddati asosida avtoulovlar navbati belgilash va ishning optimal ketma-ketligini yaratish.
				A2.02.5	Transport vositalarining yuk tashish oldi texnik tayyorgarligini (yo'l varaqasi, hujjatlar, yoqilg'i) nazorat qilish. Harakatdan oldin haydovchi va transport holati tekshirish va huquqiy, texnik va operativ shartlar tayyor holda bo'lishini ta'minlash.

			orqali barcha tashish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash.	A2.03.5	Yuk tashish jadvalini ishlab chiqish va barcha ishtirokchilarga yetkazish. Ombor, ekspeditor, haydovchi va mijoz bilan bog'liq ma'lumotlar muvofiqlashtirish va jadval o'zgarishi holatida ishtirokchilarga zudlik bilan axborot berish.
2	31155008- Yuk va passajir transportida tashishni tashkillashtiri sh bo'yicha texnik	B1.5	Yuk tashish jarayonini loyihalashtirish va rejalashtirish: logistika zanjirining barcha bosqichlarini o'rganish, yuk turiga mos transport vositalarini tanlash, eng maqbul yo'nalishlarni aniqlash hamda yuk hajmlariga muvofiq tashish rejalarini ishlab chiqish.	B1.01.5	Yuk turi, hajmi va yetkazib berish manziliga mos holda transport vositalarini tanlash.
				B1.02.5	Optimal tashish yo'nalishlarini ishlab chiqish va transport xarajatlarini tahlil qilish.
				B1.03.5	Yuk tashishning kalendar rejasini tuzish va unga tegishli texnik-ehtiyot choralarini rejalashtirish.
		B2.5	Yuk tashishni tashkil etish va muvofiqlashtirish. Yuklarni belgilangan manzilga xavfsiz, tez va tejamkor tarzda yetkazib berish uchun yuk ortish-tushirish, hujjatlashtirish va tashish jarayonlarini tashkil etish hamda jarayon ishtirokchilarini muvofiqlashtirish.	B2.01.5	Yuk ortish-tushirish jarayonlarini tashkiliy jihatdan muvofiqlashtirish va texnika bilan ta'minlanishini nazorat qilish.
				B2.02.5	Yuk tashish ishtirokchilari (ekspeditor, dispetcher, haydovchi) bilan uzviy aloqa va hamkorlikni yo'lga qo'yish.
				B2.03.5	Tashish jarayonida yuzaga keladigan fors-major holatlarni bartaraf etish va tezkor chora ko'rish.
		B3.5	Tashish jarayonining hujjatlarini tayyorlash va yuritish. Yuk tashishga oid barcha texnik va hisobdorlik	B3.01.5	Yuk tashish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni (yuk xati, yo'l varaqasi, ortish dalolatnomasi) tayyorlash.
				B3.02.5	Tashish hujjatlari asosida hisobot va ma'lumotlarni axborot tizimiga kiritish.

			hujjatlarini tayyorlash, rasmiylashtirish, ularning to'g'riligini nazorat qilish va hujjatlar asosida tashish holatini monitoring qilish.	B3.03.5	Hujjatlardagi tafovut yoki xatolarni aniqlash va tuzatish choralari ko'rish.
3	33310005-Yuklarni eltish bo'yicha ekspeditor	D1.5	Yuklarni xavfsiz, samarali va belgilangan muddatlarda manzillariga yetkazib berishni ta'minlash maqsadida transport vositalari, yo'nalishlar, yuklash-tushirish punktlari hamda vaqt rejalarini belgilash, shuningdek, tashish jarayonining barcha tashkiliy ishlarini rejalashtirish va amalga oshirish.	D1.01.5	Yukni yetkazib berish bo'yicha marshrut va jadvalni ishlab chiqish, mijoz talablariga muvofiqligini tekshirish.
				D1.02.5	Transport vositalarining yuk ko'tarish sig'imi va harakat grafigini hisobga olgan holda optimal tashish rejimini tanlash.
				D1.03.5	Yuklarni jo'natishdan oldin zarur hujjatlarni (nakladnoy, yuk xati, shartnomalar) tayyorlash va tekshirish.
		D2.5	Yuklarni manzildan manzilga xavfsiz, sifatli va belgilangan muddatlarda yetkazib berilishini ta'minlash maqsadida tashish jarayonining barcha bosqichlarini muntazam kuzatish, tahlil qilish va nazorat qilish.	D2.01.5	Tashish vaqtida yuklarning holatini, yetkazilish muddatini va yo'nalishdagi holatlarni muntazam kuzatib borish.
				D2.02.5	Transport vositasi haydovchisi bilan aloqa qilish, yuzaga kelgan muammolarni hal qilishda ishtirok etish.
				D2.03.5	Rejalashtirilgan marshrutdan chetlanish, kechikish yoki boshqa favqulodda holatlarda tegishli choralarni ko'rish va hujjatlashtirish.
		D3.5	Yuklarni belgilangan manzilga to'g'ri, xavfsiz va o'z vaqtida yetkazib berilganligini qabul qiluvchi	D3.01.5	Yuklarni belgilangan manzilga to'g'ri va o'z vaqtida yetkazilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni rasmiylashtirish.
				D3.02.5	Qabul qiluvchidan yukning holati va miqdorini qabul qilish dalolatnomasi asosida tasdiqlatish.

			tomon bilan hujjatlar asosida rasmiy tarzda tasdiqlash, topshirish jarayonini nazorat qilish hamda tashish bo'yicha yakuniy hisob-kitob va hisobdorlik hujjatlarini tayyorlash.	D3.03.5	Tashish jarayonining yakuniy hujjatlarini arxivlash, tizimga kiritish va rahbariyatga taqdim qilish.
4	33310006- uklarni yetkazib berish bo'yicha ekspeditor	E1.5	Yuklarni qabul qilish va yetkazib berish jarayonini tashkillashtirish – yuklarni ombordan yoki yuboruvchidan belgilangan muddatda va kerakli hujjatlar asosida qabul qilish, ularning holati va miqdorini nazorat qilish hamda yuklarni shartnoma shartlariga muvofiq holda, belgilangan manzilga xavfsiz va to'liq yetkazib berishni tashkil etish.	E1.01.5	Yuklarni yuboruvchidan topshirish-hujjatlari asosida qabul qilish, miqdori va holatini tekshirish.
				E1.02.5	Yetkazib berish manziliga mos yo'nalishni tanlash va yukni to'g'ri joylashtirish bo'yicha tavsiyalar berish.
				E1.03.5	Yukni qabul qiluvchiga yetkazish, qabul qilish dalolatnomasini rasmiylashtirish va hujjatlarni topshirish.
		E2.5	Yuk tashishga oid hujjatlarni tayyorlash va yuritish – yuk tashish jarayonida barcha zarur hujjatlarning (shartnomalar, qabul-topshirish dalolatnomalari, tovar-transport hujjatlari va yuk harakatini aks ettiruvchi boshqa hujjatlar) belgilangan tartibda	E2.01.5	Yuk tashishga doir tovar-transport hujjatlarini, yuk xatlari va yuk qabul qilish dalolatnomalarini to'g'ri rasmiylashtirish.
				E2.02.5	Yuk harakati va hujjatlar bo'yicha zarur ma'lumotlarni axborot tizimlariga kiritish.
				E2.03.5	Yuk bilan bog'liq hujjatlarda aniqlangan xatoliklar yoki farqlar yuzasidan tegishli shaxslar bilan bog'lanib, muammoni hal qilish.

			rasmiylashtirilishini, to'g'ri yuritilishini va hamkorlarga o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlash.		
		E3.5	Yuk tashish jarayonida xavfsizlik va yuk holatiga rioya etilishini ta'minlash – yukning texnik, sanitariya va xavfsizlik talablariga muvofiq holatda saqlanishi, zarar ko'rmasdan, yo'qolmasdan va to'liq hajmda manzilga yetkazilishini nazorat qilish, tashish davomida yukni kuzatib borish, muammoli holatlarda tezkor aralashuvni amalga oshirish va natijalar yuzasidan hisobot tayyorlash.	E3.01.5	Tashish jarayonida yuk sirtining, o'ramining va joylashtirish shartlarining xavfsizligini kuzatib borish.
				E3.02.5	Yuk bilan sodir bo'lgan zarar, yo'qolish, kechikish holatlarida dalolatnoma tuzish va rahbariyatni xabardor qilish.
				E3.03.5	Yuk yetkazilganidan so'ng holatini tahlil qilish va tashish samaradorligiga oid hisobot tayyorlash.

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Transport (yer osti, avtomobil, elektro-) dispetcheri
Mashg'ulot nomining kodi:	21642007
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etilmaydi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ishlab chiqarishda eng kami 3 yil ish tajribasiga ega bo'lgan shaxslar
Layoqatga va shaxsiy kompetensiyaga qo'yilgan talablar:	Maxsus ruhsatlar: 18 yoshga to'lgan bo'lishi; erkak (ayol); Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; Mustaqil ishlash uchun ruxsatga ega bo'lishi; Vazifalarni mustaqil rejalashtira olish, muhim vazifalarni belgilay olish, vaqtni to'g'ri taqsimlashni bilishi; Fuqaro mehnat shartnomasiga ega bo'lishi, shaxsiy javobgarlikni tushuna olishi va ish faoliyatini qonuniy asosda amalga oshira olishi kerak; Ishga munosabat va xulq-atvor: - rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; - o'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish; - belgilangan vazifalarni ish vaqtidan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish; - mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; - o'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish; - jamoa bilan inoq ishlash; o'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	5-daraja uchun: Boshlang'ich yoki o'rta maxsus (professional) ta'lim; Amaliy tajriba talab etiladi.
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	5-daraja uchun: • O'rta maxsus professional ta'lim, logistika, yuk tashish yoki transport xizmatlariga oid yo'nalishlarda; • Boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim doirasida ushbu kasbga tegishli bilimlarni o'zlashtirgan bo'lish; • Norasmiy (informal) ta'lim – ya'ni ish joyida yoki hayotiy tajriba asosida shakllangan bilim, ko'nikma va qobiliyatlar mavjud bo'lishi; • Amaliy tajriba orqali kasbiy layoqatga ega bo'lish. Ushbu yo'llar orqali o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va tajriba malakani baholash markazlari tomonidan mustaqil baholanishi orqali tasdiqlanishi lozim.

Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:

Mehnat funksiyalarining tasnifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.3-Transport vositalarining harakatini real vaqt rejimida nazorat qilish, harakat jadvaliga rioya etilishini ta'minlash hamda yuzaga keladigan har qanday og'ish yoki fors-major holatlar bo'yicha tezkor choralar ko'rish orqali transport tizimining uzluksiz, xavfsiz va samarali faoliyat yuritishini ta'minlash.	A1.01.5- Transport vositalarining harakat grafigiga muvofiq harakatini nazorat qilish va og'ishlarni aniqlash. GPS, radioaloqa yoki maxsus dasturiy ta'minot orqali kuzatuv olib borish va harakatda kechikish, to'xtalish yoki nosozliklar yuzasidan tezkor chora belgilash.	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. GPS, radioaloqa yoki monitoring tizimlari orqali transport vositalarining joylashuvi va holatini kuzatish;
		2. Harakat jadvaliga muvofiqlikni real vaqt rejimida tekshirib borish;
		3. Jadvaldan og'ishlar – kechikishlar, rejasiz to'xtashlar yoki marshrutdan chetlanishlarni aniqlash;
		4. Haydovchi bilan aloqa o'rnatish, holatni aniqlashtirish va muammoni tezkor bartaraf etish choralari belgilash;
		5. Fors-major holatlarda (nosozlik, YTH, ob-havo, tirbandlik va h.k.) zaxira transportni jalb qilish, jadvalga o'zgartirish kiritish;
		katdagi holatlar yuzasidan tegishli rahbarlarga yoki hli xizmatlarga xabar berish va hisobot tuzish.
		Ko'nikmalar:
		Transport monitoring tizimlari (GPS, AVL, AVL+MDVR) bilan ishlash;
		Harakat jadvalini tahlil qilish va aniqlangan og'ishlarga nisbatan qaror qabul qilish;
		Aloqa vositalari (radiostansiya, IP-telefon, mobil tizimlar) bilan ishlash;
		Tezkor qaror qabul qilish va favqulodda holatlarda harakatni boshqarish qobiliyati;
		Hisobotlar tuzish va topshiriqlarni hujjatlashtirish;
		Stressli vaziyatlarda muloqotni yo'lga qo'yish va muvofiqlashtirish.
		Bilimlar:
		Transport logistikasi va harakat jadvali asoslari;
		GPS va boshqa kuzatuv tizimlarining ishlash tamoyillari;
		Harakat xavfsizligi va favqulodda holatlar bo'yicha chora-tadbirlar;
		Aloqa va dispatcherlik protokollari;

		Mehnat muhofazasi va transportdagi favqulodda vaziyatlar reglamentlari;
		Axborotni qayta ishlash, yozib olish va saqlash tamoyillari.
A1.02.5- Haydovchilar bilan uzluksiz aloqa o'rnatish va zarur marshrut o'zgarishlarini ko'rsatma asosida yetkazish. Ob-havo, yo'l holati, avariya holatlari va tirbandliklarga mos ravishda yo'nalishlarni yangilash va haydovchiga muqobil (alternativ) yo'l yoki to'xtash punkti ko'rsatish.		Mehnat harakatlari:
		1. Haydovchilar bilan doimiy va barqaror aloqa o'rnatish (radioaloqa, telefon, maxsus mobil ilovalar orqali);
		2. Ob-havo sharoiti, tirbandliklar, yo'l-transport hodisalari yoki boshqa omillarga qarab marshrutga o'zgartirish kiritish;
		3. Yo'nalishni optimallashtirish yoki muqobil yo'nalish tavsiya etish orqali transport vositalarining harakatini muvofiqlashtirish;
		4. Haydovchiga yangi yo'nalish yoki to'xtash punkti bo'yicha aniq va tushunarli ko'rsatmalarni yetkazish;
		5. Vaqtincha o'zgargan harakat tartibi yoki jadvali haqida haydovchini va zarurat bo'lsa, tegishli bo'limlarni xabardor qilish;
		6. O'zgartirilgan yo'nalishlar va holatlar bo'yicha dispetcherlik jurnaliga yoki elektron tizimga qayd kiritish
		Ko'nikmalar:
		Operativ aloqa vositalaridan (mobil aloqa, VHF/UHF radiostansiyalar, mobil ilovalar) foydalana olish;
		Yo'l holati va ob-havo sharoitlariga mos ravishda muqobil marshrutlarni tezkor tanlay olish;
		Haydovchilarga qisqa, aniq va samarali ko'rsatmalar berish;
		Marshrut va harakat jadvalidagi o'zgarishlarni real vaqtda boshqarish;
		Favqulodda holatlarda muvofiqlashtirish va resurslarni qayta taqsimlash qobiliyati;
		Aloqa tarixini va topshiriqlarni yozma ravishda hujjatlashtirish.
		Bilimlar:
		Transport tarmog'i va shahar yo'llari geosxemasi, yo'nalishlar tizimi;
		Ob-havo, YTH va yo'l tirbandliklari ta'sirini tahlil qilish asoslari;
		Muqobil harakat yo'llarini tanlash mezonlari;
		Aloqa protokollari va favqulodda boshqaruv bo'yicha amaliy bilimlar;
		Dispetcherlik hujjatlari yuritish va qayd etish tartibi;
		Harakat xavfsizligi va marshrut o'zgartirishda xavf-xatarni minimallashtirish bo'yicha asosiy me'yorlar.
		Mehnat harakatlari:

	A1.03.5- Transport harakatining kunlik/tugallangan holat bo'yicha hisobotini tayyorlash. Haqiqiy yo'lga chiqish, bekatlarda to'xtash va manzilga yetib borish vaqtlarini qayd qilish va dispetcherlik tizimiga kiritish yoki rahbariyatga muntazam yetkazish.	1. Transport vositalarining kunlik harakatini yakuniy tahlil qilish: chiqish va qaytish vaqtlarini aniqlash; 2. Har bir yo'nalish uchun real yo'lga chiqish, bekatlarda to'xtash, manzilga yetib borish vaqtlarini hujjatlashtirish; 3. To'plangan ma'lumotlarni dispetcherlik tizimiga (avtomatlashtirilgan dasturga yoki maxsus shaklga) kiritish;
		1. Jadvaldan og'ishlar, kechikishlar, nosozliklar va boshqa muhim holatlar yuzasidan alohida qaydlar qilish; 2. Tugallangan marshrutlar bo'yicha kunlik yoki smenaviy hisobotni tuzish va rahbariyatga taqdim etish; 3. Hisobotlarni arxivlash yoki tizimda saqlash orqali ma'lumotlarning izchil monitoringini ta'minlash.
		Ko'nikmalar: Harakat jadvali bilan solishtirib real vaqt ma'lumotlarini tahlil qilish va to'g'ri hujjatlashtirish; Dispetcherlik dasturlari yoki Excel/elektron shakllarda ma'lumotlar kiritish ko'nikmasi; E'tibor va aniqlik: vaqtlar, raqamlar va holatlarni xatosiz qayd etish; Yig'ilgan ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish va qisqacha xulosa chiqarish; Ichki xizmat talablari asosida standartlashtirilgan hisobot tayyorlash; Raqamli va qog'oz shakllardagi hisobotlar bilan ishlay olish.
		Bilimlar: Yo'nalishlar bo'yicha harakat jadvali va rejalashtirish asoslari; Axborotlarni yig'ish va kiritishning elektron vositalari (dispetcherlik ilovalari, Excel, Google Sheets, ERP-tizimlar); Ichki xizmat reglamentlari va hisobot tuzish talablari; Avtotransport vositalari ekspluatatsiyasidagi odatiy ko'rsatkichlar (vaqt, yo'l, bekatlar soni, yo'lovchi oqimi); Axborot xavfsizligi va ma'lumotlarni arxivlash normalari.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Hisobotda keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riligi va aniqligi uchun shaxsan mas'ul; 2. Har bir marshrut bo'yicha faktik harakat holatini mustaqil tahlil qilish, muhim og'ishlar yoki muammoli holatlarni ajratib ko'rsatish bo'yicha tashabbus ko'rsatadi; 3. Taqdim etilayotgan ma'lumotlar asosida rahbariyat tomonidan qarorlar qabul qilinishi sababli, ularni

		ishonchli, tartibli va o'z vaqtida taqdim etish uchun javobgar;
		4. Hisobotlarni tuzish va axborot tizimiga kiritishda bevosita rahbar nazoratisiz, belgilangan reglamentlarga asoslanib mustaqil faoliyat yuritadi;
		5. Favqulodda holatlarda yoki anomaliya aniqlanganda, rahbarni zudlik bilan xabardor qilish va zaruriy choralarni ko'rishga mas'ul.
A2.4-Transport vositalarining harakatini real vaqt rejimida nazorat qilish, harakat jadvaliga rioya etilishini ta'minlash hamda yuzaga keladigan har qanday og'ish yoki fors-major holatlar bo'yicha tezkor choralar ko'rish orqali transport tizimining uzluksiz, xavfsiz va samarali faoliyat yuritishini ta'minlash.	A2.01.4-Yuklash va tushirish punktlarining ish grafigiga muvofiq transport vositalarini rejalashtirish va taqsimlash. Yuk hajmi, manzili, yetkazish muddati asosida avtoullovlar navbati belgilash va ishning optimal ketma-ketligini yaratish.	Mehnat harakatlari:
		1. Kunlik buyurtmalar va ombor ma'lumotlarini yig'ish, tekshirish, prioritetlash.
		2. Yuk hajmi, turi va yetkazish muddatiga qarab mos rusum va sig'imdagi transportni tanlash.
		3. Haydovchi-avtoullov juftliklarini shakllantirish va navbatni belgilash.
		1. Ombor bilan yuklash oynalarini kelishish, uzluksiz ketma-ketlik yaratish.
		2. TMS (Transportation Management System) ga reja kiritish va tasdiqlash.
		3. Reja bajarilishini on-layn kuzatib, kerak bo'lsa qayta taqsimlash.
		4. Ko'rsatkichlar (LOP, utilization, kilometraj) ni hisobotlarda aks ettirish.
		Ko'nikmalar:
		Marshrut va jadval tuzish;
		Logistik bilan bog'liq ma'lumotlarni tahlil qilish;
		TMS/ERP va Excel bilan ishlash;
		Tezkor muammo yechish;
		Ichki va tashqi mijozlar bilan muzokara.
		Bilimlar:
		Avtopark sig'im va klassifikatsiyasi (tent, ref, konteyner taliklar);
		Yuk xususiyatlari va xavfsiz ishlov talablari;
		Yo'l-transport qonunchiligi;
		Xavfsizlik, ekologik va mehnat muhofazasi normalari;
		KPI va SLA tushunchalari.
	A2.02.5-Transport vositalarining yuk tashish oldi texnik tayyorgarligini (yo'l varaqasi, hujjatlar, yoqilg'i) nazorat qilish. Harakatdan oldin haydovchi va transport holati tekshirish va huquqiy, texnik va operativ	Mehnat harakatlari:
		1. Yo'l varaqasi, kargo manifesti va litsenziyalarni tekshirish.
		2. Haydovchining yaroqli haydovchilik guvohnomasi, tibbiy ko'rigidan o'tganligi va dam olish me'yorlariga rioya etilishini tasdiqlash.
		3. Avtomobilning asosiy tizimlari (tormoz, yoritish, shinalar, yuk mahkamlash) ni ko'rikdan o'tkazish.
		4. Yoqilg'i, moy, sovutish suvi va AD blue zaxiralarini nazorat qilish.
		5. GPS, tachograf, yonilg'i darajasi datchiklari ishini sinash.

	shartlar tayyor holda bo'lishini ta'minlash.	6. Tekshiruv dalolatnomasini raqamli chek-listga kiritish; nosozlik aniqlansa chiqarishga taqiq qo'yish. 7. Nazorat natijalarini texnik xizmat ko'rsatish bo'limiga uzatish. Ko'nikmalar: Avtotransport vositasini tashqi/oddiy texnik ko'rikdan o'tkazish Hujjatlar bilan ishlash va identifikatsiya qilish Sifat va xavfsizlik auditlari Raqamli chek-list va mobil ilovalar bilan ishlash Favqulodda vaziyatga tayyorlik. Bilimlar: Yo'l harakati va tashish qoidalar (O'zbekiston "YHQQ") Texnik reglament talablari, ADR/hazardous class asoslari ISO 39001 (Yo'l harakati xavfsizligi) va OHSAS 18001 tamoyillari Digital tachograf va GPS texnologiyalari Yonilg'i sarfi me'yorlari va ekologik ko'rsatkichlar.
	A2.03.5-Yuk tashish jadvalini ishlab chiqish va barcha ishtirokchilarga yetkazish. Ombor, ekspeditor, haydovchi va mijoz bilan bog'liq ma'lumotlar muvofiqlashtirish va jadval o'zgarishi holatida ishtirokchilarga zudlik bilan axborot berish.	Mehnat harakatlari: 1. TMS yoki ERP orqali haftalik/kundalik yuk tashish jadvalini tuzish. 2. Ombor, ekspeditor, haydovchi va mijoz bilan jadvalni tasdiqlash va ulashish (e-pochta, mobil ilova, VHF-radio). 3. GPS-monitoring orqali real vaqt rejimida ma'lumot yig'ish va Gantt panelida ko'rsatish. 4. Kechikish, fors-major yoki marshrutdagi o'zgarishlarni aniqlash va darhol barcha ishtirokchilarga push-xabar yuborish. 5. Alternativ marshrut variantini taklif qilish va haydovchiga ko'rsatma berish. 6. Jadvalning faktik bajarilishini tahlil qilish, KPI (OTIF, OTD) bo'yicha hisobot tayyorlash. 7. Yangilangan jadvalni TMS arxiviga saqlash va ruxsat darajasiga ko'ra hujjatlashtirish. Ko'nikmalar: Gantt va route-planning vositalaridan foydalanish Effektiv yozma va og'zaki kommunikatsiya Muammolarni eskalatsiyasiz hal qilish KPI monitoring va analitika Ma'lumotlarni vizuallashtirish dasturlari (Power BI, Tableau grunnari). Bilimlar: Ta'minot zanjiri jarayonlari (SCOR modeli) Incoterms 2020 va mijozlarga xizmat ko'rsatish darajalari Axborot tizimlari: SAP TM/1C Logistika, mobil TMS apps SLA, kontraktual majburiyat va xizmat turlari

		Axborot xavfsizligi va GDPRga oʻxshash maʼlumot muhofazasi talablari.
	Masʼuliyat mustaqillik: va	1. Transport jarayonining uzluksizligi, xavfsizligi va samaradorligi uchun shaxsiy javobgarlik - kechikish, nosozlik yoki favqulodda vaziyatlar boʻyicha qaror qabul qilish vakolatiga ega.
		2. Rejaga tuzatish kiritish, marshrutni oʻzgartirish va resurslarni qayta taqsimlash boʻyicha mustaqil harakat qiladi; faqat siyosatga zid holatlarda rahbarga xabar beradi.
		3. TMS va monitoring tizimlaridagi maʼlumotlarning toʻgʻriligi uchun javob beradi; tekshirish organlari (DSQ, Transport inspeksiyasi) oldida vakillik qiladi.
		4. Haydovchi va ekspeditorlarning mehnat xavfsizligi, chunonchi dam-olish rejimini nazorat qilishda nazorat funksiyasini bajaradi.
		5. Kompaniyaning KPIs (OTIF, utilization, kilometraj, yonilgʻi sarfi) bajarilishiga bevosita taʼsir qiladi va choralar ishlab chiqadi.
Texnik va/yoki texnologik talab		• GPS/GPRS kuzatuv tizimi (Wialon, Omnicomm yoki shunga oʻxshash) bilan ishlash koʻnikmasi. • TMS/ERP: SAP, 1C Logistika yoki korxona ichki platformasini chuqur bilish. • Raqamli tachograf va yoqilgʻi datchiklarini konfiguratsiya, maʼlumot yuklab olish, analiz qilish. • Ofis dasturlari: Excel (pivot, Power Query), Word, PowerPoint, Outlook; hisobotlarni Power BI yoki Tableauʼda vizuallashtirish. • Aloqa vositalari: VHF/UHF radio, mobil messenjerlar (Teams, Telegram), web–portal orqali bildirishnomalar yuborish. • IT-xavfsizlik: VPN bilan ulanish, foydalanuvchi rollari, maʼlumotlar zaxiralash va GDPRga mos shifrlash tartiblarini tushunish. • Avtomobil diagnostika interfeyslari (OBD-II skaner, EBS tester) bilan ishlashda elementar tayyorgarlik.

Kasbning nomi:	Yuk va passajir transportida tashishni tashkillashtirish bo'yicha texnik
Mashg'ulot nomining kodi:	31155008
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5
Malakani baholashga qo'yilgan talablar:	Tavsiya etilmaydi
Ish staji (amaliy tajriba)ga qo'yilgan talablar:	Ishlab chiqarishda eng kami 3 yil ish tajribasiga ega bo'lgan shaxslar
Layoqatga va shaxsiy kompetensiyaga qo'yilgan talablar:	Maxsus ruhsatlar: 18 yoshga to'lgan bo'lishi; erkak (ayol); Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; Mustaqil ishlash uchun ruxsatga ega bo'lishi; Vazifalarni mustaqil rejalashtira olish, muhim vazifalarni belgilay olish, vaqtini to'g'ri taqsimlashni bilishi; Fuqaro mehnat shartnomasiga ega bo'lishi, shaxsiy javobgarlikni tushuna olishi va ish faoliyatini qonuniy asosda amalga oshira olishi kerak;
	Ishga munosabat va xulq-atvor: - rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; - o'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish; - belgilangan vazifalarni ish vaqtidan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish; - mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; - o'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish; - jamoa bilan inoq ishlash; o'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	5-daraja uchun: Boshlang'ich yoki o'rta maxsus (professional) ta'lim; Amaliy tajriba talab etiladi.
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	5-daraja uchun: • O'rta maxsus professional ta'lim, logistika, yuk tashish yoki transport xizmatlariga oid yo'nalishlarda; • Boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim doirasida ushbu kasbga tegishli bilimlarni o'zlashtirgan bo'lish; • Norasmiy (informal) ta'lim – ya'ni ish joyida yoki hayotiy tajriba asosida shakllangan bilim, ko'nikma va qobiliyatlar mavjud bo'lishi; • Amaliy tajriba orqali kasbiy layoqatga ega bo'lish. Ushbu yo'llar orqali o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va tajriba malakani baholash markazlari tomonidan mustaqil baholanishi orqali tasdiqlanishi lozim.

Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:

Mehnat funksiyalarining tasnifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.5-Yuk tashish jarayonini loyihalashtirish va rejalashtirish: logistika zanjirining barcha bosqichlarini o'rganish, yuk turiga mos transport vositalarini tanlash, eng maqbul yo'nalishlarni aniqlash hamda yuk hajmlariga muvofiq tashish rejalarini ishlab chiqish.	B1.01.5- Yuk turi, hajmi va yetkazib berish manziliga mos holda transport vositalarini tanlash.	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Yuk haqida ma'lumot to'plash: Yukning turi aniqlanadi. Yuk hajmi, og'irligi va o'lchamlari aniqlanadi.
		2. Yetkazib berish manzilini aniqlash. Yuk olinadigan va yetkazib beriladigan joy manzili aniqlanadi. Masofa va yo'nalish belgilanadi. Yo'l holati o'rganiladi.
		3. Tashish talablari va cheklovlarini tekshirish. Yuk xavfsizligi talablariga javob berish. Yo'l harakati cheklovlari tekshirish. Bojxona va ruxsatnomalar tekshirish.
		Ko'nikmalar:
		Transport vositalarining turlarini bilish
		Yuk xususiyatlarini aniqlash ko'nikmasi
		Yo'nalish va geografik manzillarni tahlil qilish ko'nikmasi
		Transport-logistika hisob-kitoblari
		Bilimlar:
		Oddiy, buziluvchan, xavfli, suyuq, ortiqcha o'lchamli, maxsus haroratda saqlanishi kerak bo'lgan yuklar haqida tushuncha
		Yuk mashinalari, tirkamalar, konteynerlar, temiryo'l vagonlari, havo va dengiz transportlari haqida asosiy bilimlar
		Marshrut rejalashtirish, tranzit punktlar, multimodal tashish haqida tushuncha
		Yuk tashish xavfsizligi va muhofaza qilish qoidalarini bilish
		Transport xarajatlarini hisoblash usullarini bilish
	B1.02.5- Optimal tashish yo'nalishlarini ishlab chiqish va transport xarajatlarini tahlil qilish.	Mehnat harakatlari:
		1. Tashish talablari va yuk xususiyatlarini aniqlash. Yuk turi, hajmi, og'irligi, maxsus shartlarni aniqlash. Yuk olinadigan va yetkazib beriladigan manzillarni aniqlash. Mijoz yoki buyurtmachi talablarini aniqlashtirish.
		2. Mavjud transport yo'nalishlarini va infrastrukturani o'rganish. Mavjud yo'llar, temiryo'l, havo, dengiz marshrutlarini aniqlash. Yo'l holati, bojxona punktlari, to'xtash joylari, tranzit yo'llar holatini baholash. Har bir

		yo'nalishda mavjud transport vositalarining qulayligi va yetkazish vaqti.
		3. Marshrut variantlarini ishlab chiqish. Bir nechta muqobil yo'nalishlarni shakllantirish (tezkor, arzon, xavfsiz). Multimodal (masalan: avtomobil + temiryo'l) variantlarni ko'rib chiqish. Har bir yo'nalishda yuk ortish va tushirish punktlarini aniqlash
		Ko'nikmalar:
		Marshrutlarni tahlil qilish va optimallashtirish ko'nikmasi
		Transport xarajatlarini hisoblash ko'nikmasi
		Logistika jarayonlarini tashkil qilish ko'nikmasi
		Bilimlar:
		Marshrutlarni rejalashtirish va optimallashtirish bo'yicha bilimlar
		Transport xarajatlarini hisoblash usullari bilimlari
		Logistika zanjiri va ta'minot tizimi haqida bilimlar
	B1.03.5- Yuk tashishning kalendar rejasini tuzish va unga tegishli texnik-ehtiyot choralari rejalashtirish.	Mehnat harakatlari:
		1.Yuk tashish hajmi, yo'nalishi va muddati haqidagi ma'lumotlarni yig'ish
		2. Tashish bo'yicha umumiy ish yuklamasini taqsimlash
		3. Yuk tashishning kalendar (kunlik, haftalik, oylik) rejasini tuzish
		4. Rejalashtirilgan tashish sanalari bo'yicha transport vositalari bandligini tekshirish
		Ko'nikmalar:
		Kalendar rejalashtirish va logistika jadvalini tuzish ko'nikmasi
		Yuk tashish hajmi va muddatini baholash
		Transport vositalari bandligini kuzatish va muvofiqlashtirish
		Texnik xizmatlar va ehtiyot choralarni rejalashtirish
		Bilimlar:
		Transport-logistika rejalashtirish asoslari
		Ishlab chiqarish va yetkazib berishning kalendar grafigi tuzish tamoyillari
		Transport vositalarining texnik xizmat ko'rsatish talablari
		Texnik nosozliklarni oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Logistika zanjirining barcha bosqichlari uchun javobgarlik
		2. Transport vositalarini to'g'ri tanlash uchun javobgarlik
		3. Yo'nalishlar va rejalar samaradorligiga mas'ullik
		4. Xatolik va kechikishlarning oldini olish
B2.5-Yuk tashishni tashkil etish va muvofiqlashtirish. Yuklarni	B2.01.5-Yuk ortish-tushirish jarayonlarini tashkiliy jihatdan	Mehnat harakatlari:
		1. Yuk ortish-tushirish ishlari jadvalini ishlab chiqish
		2. Yuk ortiladigan/tushiriladigan joylarda texnika va uskunalar mavjudligini aniqlash

belgilangan manzilga xavfsiz, tez va tejamkor tarzda yetkazib berish uchun yuk ortish-tushirish, hujjatlashtirish va tashish jarayonlarini tashkil etish hamda jarayon ishtirokchilarini muvofiqlashtirish.	muvofiqlashtirish va texnika bilan ta'minlanishini nazorat qilish.	3. Yuk ortish-tushirish brigadalari ishini rejalashtirish va ularga topshiriq berish
		4. Jarayon davomida texnika xavfsizligi va yukga zarar yetmasligini nazorat qilish
		Ko'nikmalar:
		Yuk ortish-tushirish texnologiyasini tushunish va amaliyotda qo'llay olish
